


## TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-may oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,4 % o'sdi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 27,0 foizni tashkil etdi va o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 131,0 % ga o'sdi.

### 2019 yil yanvar-may oyida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da )




2018 yilning shu davriga nisbatan Toshkent shahrining diyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Olm zor tumani 126,7 Yakkasaroy tumani 126,4 % Shayxontoxur tumani 115,5 % Sergeli tumani 109,0 % Yunusobod tumani 108,5 % qayd etilgan bo'lsa, ayrim tumanlarda, jumladan, Chilonzor tumani 95,5%, Uchtepa tumani 102,5% hamda Bektemir tumanlarida 101,2% nisbatan past ko'rsatkichlar qayd etilgan.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 761,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 112,3 % ga o'sdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.

### **Tumanlarning umumiy ovqatlanishdagi ulushi**


(jamiga nisbatan foizda)



Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Yunusobod tumani 18,6%, Sergeli tumani 10,2%, Shayxontoxur tumani 12,4 %,

Yakkasaroy tumani 11,6 % tashkil etgan bo'lsa, Yashnobod tumani 6,9 % Bektemir tumani 1,5 % va Mirobod tumani 8,3% ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

**Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi**  
(jamiga nisbatan, foizda)



Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 27,0 % ni tashkil etib, chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Chilonzor tumani (17,4 foiz), Shayxontoxur tumani (11,6 foiz), Uchtepa tumani (9,6 foiz), va Yunusobod tumani (11,4foiz) bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 5698,3 ming. so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Bektemir tumani (33129,1 ming. so'm), hilonzor tumani (10185,8 ming. so'm), Yakkasaroy tumani (8514,4 ming. so'm), Mirobod tumani (8253,7 ming. so'm) Uchtepa (5161,4 ming. so'm), kuzatildi.




### **Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

	Ming. so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	5698,3	105,5
tumanlar:		
Uchtepa	5161,4	101,4
Bektemir	33129,1	97,7
Yunusobod	4937,0	106,7
Mirzo Ulug'bek	3142,0	106,3
Mirobod	8253,7	105,1
Shayxontoxur	4898,7	112,9
Olmazor	2610,4	124,4
Sergeli	6559,9	105,4
Yakkasaroy	8514,4	125,0
Yashnobod	3918,8	106,7
Chilonzor	10185,8	93,5

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi


(o'sish su'rati o'tgan yilga nisbatan, foizda)



2019 yil yanvar-may oyida chakana savdo tovar aylanmasi Toshkent shahar bo'yicha aholi jon boshiga 5698,3 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,5 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-may oyida o'tgan yilga nisbatan Toshkent shahrida eng yuqori o'sgan Yakkasaroy tumani 125,0 % Yunusobod tumani 106,7 %, Mirzo-Ulug'bek tumani 106,3 %, va Mirobod tumani 105,1 % tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha o'sish sur'ati eng kam ko'rsatkichlar Chilonzor tumani 93,5 %, Bektemir tumani (97,7%) qayd etilgan.

### Kichik korxona va Mikrofirmalar ulushi

(jami chakana savdo aylanmasidan )




Kichik korxona va mikrofirmalar jami chakana savdo tovar aylanmasida ulush eng katta bo'lgan tumanlar: Mirzo-Ulug'bek tumani (41,8%), Olmazor tumani (42,1%), Chilonzor tumani (30,3%), Yunusobod tumani (32,9%), Bu tumanlar Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiyligi ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shu bilan birga past ko'rsatkichlarga ega tumanlar ham bor, jumladan, Bektemir tumani (11,4%), Yashnobod tumani (23,5%) hissasiga to'g'ri kelagan .


## 2019 yil yanvar-may oylarida ulgurji savdo

2019 yil yanvar-may oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 14791,8 mlrd. so‘mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 107,6 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar 12375,1 mlrd. so‘mga yetib, umumiyligi ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 83,7 %ni tashkil qildi.



### Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi jami savdoga nisbatan (%)




Kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p ulushga ega tumanlarga Uchtepa tumani (98,5%), Shayxontoxur tumani (97,4%), Sergeli tumani (92,7), Yunusobod tumani (85,1%) va Bektemir tumani (94,9%), eng past ulush esa Yakkasaroy tumanlariga (74,0%), Olmazor tumani (74,2%) va Yashnobod tumani (74,0%), to'g'ri kelgan.

### **Ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi**


(jamiga nisbatan foizda)

■ Uchtepa	■ Bektemir	■ Yunusobod	■ Mirzo-Ulug'bek
■ Mirobod	■ Shayxontoxur	■ Olmazor	■ Sergeli
■ Yakkasaroy	■ Yashnobod	■ Chilonzor	



Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar Yakkasaroy tumani 13,2%, Mirzo-Ulug'bek tumani 13,2 %, Yunusobod tumani 7,9 %, Mirobod tumani 11,5%, Olmazor tumani 12,8 % tashkil etgan bo'lsa, shu bilan bir qatorda ba'zi bir tumanlar ya'ni Bektemir tumani 1,5 %, Uchtepa tumani 5,2 %, Sergeli tumani 5,8 %, Yashnobod tumani 8,3 jamiga nisbatan eng past ko'rsatkichlarni qayd etdi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi jamiga nisbatan



Ulgurji tovar aylanmasida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi eng yuqori Yakkasaroy tumani 11,7%, Mirzo-Ulug'bek tumani 12,7 %, Yunusobod tumani 8,0 %, Mirobod tumani 12,2% Chilonzor tumani 11,4 %, hamda eng kam ko'rsatkichni Bektemir tumani 1,7% qayd etgan.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi.  
Abdurayimov J.J  
Tel: 230-88-20 (21)